UDK:631.15:338.91

YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH SHAROITIDA QISHLOQ XO‘JALIGI YERLARIDAN FOYDALANISH TIZIMINI TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Safiyeva Nigora Nurmuxamadovna
tayanch doktorant, Guliston davlat universiteti

https://doi.org/10.5281/zenodo.14736040

Annotatsiya. *Hozirgi kunda dunyo mamlakatlari jadallik bilan yashil iqtisodiyotga o‘tib bormoqda.Yashil iqtisodiyotga o‘tishning asosiy maqsadlaridan biri bu mavjud resurslarimizni asrab avaylab,atrof muhitga zarar yetkazmagan holda foydalanishni nazarda tutadi. “2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezident qarorining ustuvor vazifalarida organik qishloq xo‘jaligi uslublarini joriy etish,haydaladigan yer maydonlari yuzasining doimiy qoplanib turishini ta’minlash maqsadida ekinlarni takror ekish belgilab olingan[1].Shunday ekan mamlakatdagi qishloq xo‘jaligidagi yerlardan foydalanishni tartibga solish asosiy vazifalarimizdan bo‘lib qolmoqda.Biz ushbu maqolamizda qishloq xo‘jaligida yashil iqtisodiyotga o‘tish sharoitida yer resurslaridan foydalanishni modernizatsiya qilishning zaruriyati va uni joriy qilishning shart-sharoitlari,bu sohadagi ayrim kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo‘llai xorij tajribalaridan samarali foydalanish to‘g‘risida fikr yuritdik.*

Kalit so‘zlar: *Yashil iqtisodiyot,yer resurslari,moderniztsiya,qishloq xo‘jaligi yerlari,yerdan foydalanish tizimi,xususiy mulkchilik,yer rentasi.*

Аннотация. *В настоящее время страны мира стремительно переходят к зеленой экономике. Одной из основных целей перехода к зеленой экономике является использование имеющихся у нас ресурсов без ущерба для окружающей среды. Приоритетными задачами Указа Президента Республики Узбекистан «Об утверждении стратегии перехода к «зеленой» экономике Республики Узбекистан на 2019-2030 годы» являются внедрение органических методов ведения сельского хозяйства, постоянное покрытие площади пахотных земель с целью обеспечения ее устойчивости определены подсевы сельскохозяйственных культур[1]. Поэтому регулирование использования сельскохозяйственных земель в стране остается одной из наших главных задач. В нашей статье мы обсудили необходимость модернизации использования земельных ресурсов в условиях перехода к зеленой экономике в сельском хозяйстве и условия ее внедрения, некоторые недостатки в этой области и эффективное использование зарубежного опыта путем их устранения.*

Ключевые слова: *Зеленая экономика,земельные ресурсы, модернизация, земли сельскохозяйственного назначения, система землепользования, частная собственность, земельная рента.*

Abstract. *Currently, the countries of the world are rapidly moving to a green economy. One of the main goals of the transition to a green economy is to use our existing resources without harming the environment. The priority tasks of the Presidential Decree of the Republic of Uzbekistan "On approval of the strategy of the transition to the "Green" economy of the Republic of Uzbekistan in the period of 2019-2030" include the introduction of organic agricultural*

methods, permanent covering of the surface of arable land. in order to ensure its stability, replanting of crops has been determined[1]. Therefore, regulation of agricultural land use in the country remains one of our main tasks. In our article, we discussed the need to modernize the use of land resources in the context of the transition to a green economy in agriculture and the conditions for its introduction, some shortcomings in this area and the effective use of foreign experiences by eliminating them.

Key words: *Green economy,land resources, modernization, agricultural land, land use system, private ownership, land rent.*

O‘zbekistonning 2030 yilgacha mo‘ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ta’minlashda barqaror rivojlanishga erishish vositalari hisoblangan iqtisodiy,ijtimoiy va ekologik komponentlarni o‘zaro muvofiqlashtirish murakkab vazifa hisoblanadi. “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tishning muhim vazifalari qatoriga iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslarni oqilona iste’mol qilish hisoblanadi.Yuz berayotgan global iqlim o‘zgarishi va salbiy antropogen ta‘sirlar natijasida qishloq xo‘jaligi yerlari cho‘llanishi va o‘z xususiyatini yo‘qotib borayotganligi oqibatida qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlarning 2 mlrd gektari ya’ni 14,9 % yerlar yaroqsiz holga kelib qolgan[3]. Aholi sonining o’sishi, yer, suv va energiya resurslariga bo’lgan talabning oshishi,shuningdek iqlimning keskin o’zgarishi oziq ovqat xavfsizligiga ta’sir etuvchi omillardir. Oziq ovqat xavfsizligini ta’minlashning asosiy yo’nalishlaridan biri qishloq xo’jaligini rivojlantirish va yer resurslaridan foydalanish tizimini modernizatsiya qilish va takomillashtirish hisoblanadi.So’nggi yillarda qishloq xo’jaligi yer resurslaridan maqsadli va samarali foydalanmaslik,ularni tarmoq ichida taqsimlash va qayta taqsimlashning samarasizligi,yerlar unumdorligining pasayib ketish holatlari kuzatilmoqda.Bu turdagi muammolarga samarali yechim topish va uni amamlga oshirish uchun aynan “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish sharoitida qishloq xo’jaligida yer resurslaridan samarali foydalanishni takomillashtirish va ushbu yo‘nalishni rivojlantiruvchi taklif va tavsiyalar ishlab chiqish,ularni amaliyotga tadbiq etish,bu sohada rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili

Qishloq xo‘jaligida resurslardan foydalanishni va shuningdek, yer resurslaridan samarali foydalanishini rivojalntirish borasida ko‘plab xorijlik va yurtimiz olimlari o‘z izlanishlarini olib borgan bo‘lib, bunda tarmoqni rivojlantirish uchun aynan xorij tajribalarini o‘rganish va amaliyotga joriy etishning o‘rni haqida o‘zlarining ilmiy fikr mulozalarini yuritib, tahlillarni amamlga oshirgandir.

“Yashil iqtisodiyot”ga o‘tishning zaruriyati,mohiyati, uning hozirgi kundagi dolzarbligi va mamlakatimizda “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tishda tabiiy resurslarning cheklanganligi va ulardan samarali foydalanish,uning tamoyillari haqida Vahobov A.V .,Xajibakiyev Sh.X va boshqalar o‘zlarining darslik va monografiyalarida kengroq yoritganlar[4].Yerdan foydalanishning aniqroq tushunchasini esa S.Tkachuk “Yerdan foydalanish bu-tabiat qonunlari bilan hamohang tarzda iqtisodiy qonunlardan ongli asosda foydalanish bilan ob’ektiv rivojlanadigan yer resurslaridan foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy shakllari va ishlab chiqarish usullarining yig’indisidir” deb ifodalaydi[5]. Yurtimiz olimlaridan esa A.S.Altiyev yerdan foydalanish tizimi, uning elementlari,turlarini va ularning o‘zaro tizimli bog’liqlikda ekanligini yoritib bergan[6]. Degradadsiyaga uchragan sug’oriladigan yerlarni tiklash va foydalanishga kiritish mehanizmini

takomillashtirish,ularni moliyalashtirish xarajatlari,degradadsiyaga uchragan yerlarni tiklash va monitoringini yuritishning hozirgi holatdagi tahlili bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni Usmanov Yu.A. o'zining ilmiy ishlarida kengroq yoritganlar[7].


Tadqiqot metodologiyasi

İlmiy tadqiqotimiz davomida biz ushbu maqolada statistik ma'lumotlar tahlili, analitik tahli va qiyosiy tahlil usullaridan foydalangan holda yurtimizda yer resurslaridan foydalanish tizimi va uning samaradorligini oshirishda xorijiy mamlakatlar tajribalaridan samarali foydalanish va mamlakatimizda yer munosabatlarini tartibga solish mexanizmi yer resurslaridan foydalanish tizimini yanada rivojlantirish uchun foydalanishga taklif etishni maqsad qilib oldik.

Natija va muhokamalar

Ma'lumki, so'nggi yillarda qishloq xo'jaligi yer resurslaridan maqsadli va samarali foydalanmaslik, ularni tarmoq ichida va tarmoqlararo taqsimlash va qayta taqsimlashning samarasizligi, yerlarni noqishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun iqtisodiy va texnologik asoslanmasdan o'tkazilishi va eng achinarlisi, yerlar unumdorligining pasayib ketishi holatlari kuzatilmoqda. Ayniqsa, "...yer maydonlarini optimallashtirishdagi kamchiliklar, ayrim fermer xo'jaliklari yetarlicha aylanma mablag'lar, zarur texnika va boshqa moddiy-texnika resurslariga ega emasliklari qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligiga, shartnoma majburiyatlari bajarilishiga va fermer xo'jaliklarining rentabelligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda"[2]. Shuning uchun ham, mamlakatimiz iqtisodiyotini innovatsion isloh qilish va modernizatsiyalash sharoitida yer resurslaridan foydalanish tizimini tartibga solish va uning mexanizmlarini takomillashtirish nafaqat qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish, fermer, dehqon xo'jaligi va tomorqa yerlaridan samarali foydalanish, balki mahsulotlar ishlab chiqarish samaradorligi va raqobatdoshligini oshirish, respublikamiz oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va eksport salohiyatini yuksaltirish borasidagi eng muhim ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda. Zero, qishloq xo'jaligida eng muhim va asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanuvchi yer resurslaridan foydalanish tizimi umum iqtisodiy, shuningdek agrosanoat tarmoqlari yaxlit tizimining ajralmas va uzviy tarkibiy qismi bo'lib, u o'z navbatida sohani innovatsion rivojlantirish bosqichlari talablari va tamoyillariga mos keladigan mexanizmlarni ilmiy-nazariy asoslashni va ularni amaliyotga samarali tatbiq etishni taqozo qiladi.

Jahon bo'yicha aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha haydaladigan yer maydoni 0,3 gektarni tashkil etadi.Shu jumladan AQSH da bu ko'rsatkich 0,79 gektarga,Kanadada 1,79 gektarga,Xitoyda 0,09 gektarga,Yaponiyada 0,03 gektarga tengdir[8].



1-rasm.Qoraqalpog'iston respublikasi,viloyatlar va Toshkent shaxri bo'yicha sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yer turlarining taqsimlanishi.(% hisobida)

Yuqoridagi jadvalga ko'ra O'zbekiston Respublikasi hududining 58,21 foizini qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar egallagan bo'lib, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda asosiy vosita hisoblanadi. Respublika hududida qishloq xo'jaligi maqsadlariga mo'ljallangan yerlarning taqsimlanishi tabiiy iqlim omillariga binoan belgilanadi.Mamlakatning ma'muriy chegarasidagi umumiy yer maydoni 2024 yil 1 yanvar holatiga jami yerlar 44 892,4 ming gektarni, shundan sug'oriladigan yerlar esa 4 342,5 ming gektarni yoki umumiy yer maydonining 9,7 foizini tashkil qiladi.Respublikada qishloq xo'jaligi korxonalari va tashkilotlarining soni fermer xo'jaliklari bilan birgalikda olganda, 2024 yil 1 yanvar holatiga ko'ra 787 808 ta bo'lib, ularga biriktirib berilgan yerlarning umumiy yer maydoni 26 132,2 ming gektarni, shu jumladan qishloq xo'jalik yer turlari maydoni 21 206,5 ming gektarni, shundan 3 701,0 ming gektari sug'oriladigan yerlarni tashkil qiladi.Asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlari sug'oriladigan yerlarda yetishtirilishini va bunday yerlar umumiy yer maydonimizning 9,7 foizini tashkil etadi.Shular jumlasidan Sirdaryo viloyatining umumiy yer maydoni 427,6 ming ga.ni tashkil etib,sug'oriladigan yer maydoni 287,2 ming ga.ni qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar 286,6 ming ga.ni tashkil etadi.Yuqoridagilari inobatga olib hamda "Yashil iqtisodiyot"ga o'tishni qo'llab quvvatlagan holda qishloq xo'jaligida quyidagi chora tadbirlarni amalga oshirishimiz maqsadga muvofiqdir:

-tuproq unumdorligini saqlash va oshirish,ularning nazoratini amalga oshirish;
-suvdan foydalanish manbalarini hisobga olgan holda almashinib ekish;
-yerlarning foydalanishdan chiqib ketishini oldini olish;
-lazer yordamida tekislash ishlarini jadal rivojlantirish;
-horijiy mamlakatlar tajribasidan foydalangan holda tuproq unumdorligi monitoringini olib borish;
-almashinib ekishni keng joriy qilish va bu jarayon yerdan foydalanuvchilar tomonidan foydalanishni amaliyotda ko'proq tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa

Hozirgi kunda ko'pgina yer bozori rivojlangan mamlakatlarda barcha mulkchilikni,xususan yer mulkdorlarining huquqlarini himoya qiluvchi qonunlar qabul qilinmoqda.Ushbu qonunlar asosida yerlarni erkin tarzda sotish va sotib olish mumkin.Misol tariqasida AQSHda fermerlar kichik va yirik guruhga ajratilgan.AQSH qishloq xo'jaligi vazirligida Davlat tuproq xizmati faoliyat olib boradi va tuproq unumdorligi holati monitoringini olib boradi uning tomonidan aniq yer uchastkalari uchun muayyan texnologiyalar ishlab chiqilgan.Shunga asoslangan holda fermer xo'jaliklari tuproq unumdorligi borasida qayg'urmaydi,balki taqdim etilgan aniq tavsiyalar va texnologiyalar asosida kredit oladi va sug'urta qilinadi[9].Yuqorida sanab o'tilgan horijiy mamlakatlarda yer munosabatlarini tartibga solishning tamoyillari O'zbekiston uchun ham dolzarb bo'lib,bozor iqtisodiyoti sharoitida yer munosabatlarini tartibga solish borasida qonunlar ishlab chiqishda va amaliyotda iqtisodiy tadbirlar ishlab chiqishda foydalanish mumkindir.O'zbekiston sharoitida jahonning ayrim rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida yerga egalik qilish tizimining ijobiy jihatlaridan – ayrim rivojlangan davlatlardagi yerlardan foydalanishni rejalashtirish, turli xil ixtisoslashuvga ega fermer xo'jaliklari yer maydonlarining maksimal va minimal o'lchamini belgilab qo'yish, yer ijarasi munosabatlarini yanada kengaytirish, uning samarali uslublarini joriy qilish, xorijiy

fuqarolar, jismoniy va yuridik shaxslarning yerlardan, xususan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanishi faqat ijara huquqi shartlari asosida amalga oshirilishi yuzasidan tajribani O'zbekistonda ham joriy qilishni tavsiya qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477 sonli O'zbekiston Respublikasi Prezident qarori 04.10.2019y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 14 yanvardagi Vazirlar Mahkamasining mamlakatimizni 2016 yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan kengaytirilgan majlisdagi ma'ruzasi.uza.uz,16.01.2017.
3. www.cer.uz
4. Vahobov A.V .,Xajibakiyev Sh.X va b. "Yashil iqtisodiyot": Darslik-T.2020-293b.
5. Ткачук С.А. Управление земельными ресурсами (Вопросы общей теории): Учебное пособие. – Целиноград, ЦСХИ, 1986. – 92с. С.11.
6. A.S.Altiyev,"Yer resurslaridan foydalanish tizimini tartibga solish muammolari":Monografiya-Toshkent 2018-234b
7. Usmanov Yu.A. "Degradadsiyaga uchragan sug'oriladigan yerlarni tiklash va foydalanishga kiritish mexanizmlarini takomillashtirish":Monografiya-T. 2024-156 b.
8. www.priroda.ru
9. A.S.Altiyev,"Yer resurslaridan foydalanish tizimini tartibga solish muammolari":Monografiya-Toshkent 2018-234b